XALQ DEPUTATLARI BOG‘OT TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 28 - sentabr VI-76-119-12-170-K/22 Bog‘ot tuman hokimligi

“Tozabozor” mahallasidagi “Oltinqum” ko‘chasining nomini Azamat Umarov nomiga qayta nomlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga, “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasiga asosan, tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar)ga (keyingi o‘rinlarda matnlarda “geografik ob’ektlar” deb yuritiladi) nom berish va qayta nomlash maqsadida xalq deputatlari Bog‘ot tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining takliflari asosida Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022 yil 31 yanvardagi yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Tozabozor” mahallasidagi “Oltinqum” ko‘chasining nomini “Jasorat” medali sohibi marhum Azamat Umarov nomiga qayta nomlansin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Xorazm viloyati boshqarmasining Bog‘ot tumani filiali (E.Eshniyazov), Ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov), tuman hokimligi tizimidagi boshqarma, bo‘lim, tashkilot va muassasalarga:

ko‘chaga nom berilishi munosabati bilan tegishli ishlarni amalga oshirish yuzasidan bir oylik muddatda belgilangan tartibda zarur choralar ko‘rish hamda hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Tuman arxitektura va qurilish bo‘limi, “Tozabozor” MFY bilan birgalikda tuman bo‘yicha tasdiqlangan yagona zamonaviy milliy dizayn asosida bir oy muddatda geografik ob’ekt nomi qayd qilingan peshlavhalarni o‘rnatsin.

5. Belgilansinki, geografik ob’ektlar nomlari qayd qilingan peshlavhalarni o‘rnatish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag‘lari va homiylar hisobiga qoplanadi.

6. Mazkur qaror rasmiy manbalarda e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

7. “Tozabozor” mahallasidagi “Oltinqum” ko‘chasining nomini “Jasorat” medali sohibi marhum

Azamat Umarov nomiga qayta nomlanishi munosabati bilan xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 25-martdagi “Bog‘ot tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qisimlariga nom berish va qayta nomlash tog‘risida”gi IV-64-32-12-170-K/22-sonli qarori ilovasining 620-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Qurbonov), o‘rinbosarlari (M.Qalandarov, R.Sharipov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi (M.Matmuratova) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси **Ш.Яхшибаев**